

VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHILARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Shokirova Dilnoza Bahodir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti Yurisprudensiya: Biznes huquqi
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: shokirovadilnoza484@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar va voyaga etmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifini va ularning turkumi va tasnifi, shuningdek, yoshlar va voyaga etmaganlar jinoyati profilaktikasining asosiy yo'nalishlarini yoritib berilgan. Bundan tashqari ularning tahliliy materiallari kriminologiya zahirida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demokratlashtirish va liberallashtirish, tibbiy-biologik, ijtimoiy psixologik, kriminologiya, jinoyatlar yig'indisi, jinoyat shaxsining alohida tiplari, izchil kriminogen tip, situativ tip, situativ kriminogen tip.

Bugungi bizning mamlakatimizda inson omili – eng yuksak darajaga qo'yilgan uning huquq va erkinliklarining muhofaza qilinishining yakdil va mukammal kafolat tizimi yaratilgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda” [1].

Shu ma'noda, jinoyatchilikning sodir etilishi demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga, jamiyatda aholining tinch,

osoyishta, farovon hayot kechirishiga hamda jamiyatda har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy, ruhiy jihatdan komil insonni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Ushbu maqolamizda keltirilgan huquqiy munosabatni to'laqonli yoritishda duch keladigan bazi tushunchalarning mazmunini qisqacha sharhlab o'tamiz:

➤ **Yosh** deganda, u yoki bu shaxsning alohida psixo-fiziologik holatini tavsiflovchi, tibbiy-biologik, ijtimoiy psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan aloqador bo'lgan, tug'ilishdan to inson hayotining qandaydir xronologik muddatigacha o'tgan vaqtning kalendar davri tushuniladi [2].

➤ **Jinoyatchi shaxsi** – avvalo **jinoyat subyekti**ning shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga binoan jinoyat sub'ekti uni aynan sub'ekt deb topish uchun zarur ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim. Bunday ko'rsatkichlar uchta: jismoniy shaxs (jahonning ba'zi bir mamlakatlarida yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti deb topish imkoniyati nazarda tutilganki, bunga qo'shilish qiyin), shaxsning muayyan yoshga to'lganligi (MDHning bir qancha mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra 14, 16, 18 yosh, jahonning ba'zi bir mamlakatlari jinoyat kodekslariga binoan esa – bundan ham kichikroq yosh) va aqli rasolik [3].

➤ **Aqli rasolik** – shaxsning muayyan rivojlanish bosqichidagi qobiliyati, ijtimoiylashuvidan kelib chiquvchi yoshdagi va jinoyat sodir etish vaqtidagi ruhiy jihatdan sog'lig'i hamda harakatlari uchun o'z-o'ziga hisob berishi va ularni boshqarishi, keyinchalik jinoiy javobgarlik va jazoni o'tashdagi ruhiy holati sifatida belgilanadi [4].

➤ **O'smirlik davri** – nihoyatda sezuvchan, ruhiy tomondan tez shikastlanuvchi, qarama-qarshi fikrlarga ega bo'luvchi davr. O'smir yoshi 11-12-

13-14-15 yoshlarga to'g'ri kelib, bu davr biologik nuqtayi nazardan o'tish davri bo'lib hisoblanadi, chunki bu yoshda jinsiy ulg'ayish namoyon bo'ladi [5].

Ushbu tayanch tushunchalardan kelib chiqqan holda biz yoritayotgan mavzuda ko'rsatib o'tilgan har bir holatni alohida olgan holda tahlil qilishga va xulosaga qaror qildik.

Misol sifatidan oladiga bo'lsak, K. va Z. ismli o'smirlar bitta uyda yashashardi, 70 o'rta maktabda o'qishardi. K. bilan suhbatda Z. unga o'zining qo'rqmas ekanligini aytib uning ustidan kuldi. Shuningdek, K. onasining yoqimtoyi ekanligini, bunaqalardan haqiqiy erkak chiqmasligini, agar erkakligini isbotlamasa u bilan boshqa do'stlashmasligini aytdi.

Savol. Jinoyatchi shaxsini voyaga yetmaganlar misolida tushuntirib bering. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishiga ta'sir etuvchi sabablar va omillarni yoritib bering.

Biz yuqorida jinoyatchi shaxsiga ta'rif berib o'tgan edik. Endi ushbu shaxsni voyaga yetmaganlar misolida ko'rib chiqamiz.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik deganda, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan muayyan vaqt mobaynida ma'lum bir xududda sodir etilgan jinoyatlar yig'indisi tushuniladi.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish bilan bog'liq masalalarni tahlil etishda avvalo ularning shaxsini o'rganishga e'tibor qaratish joiz. O'quvchilar va voyaga yetmaganlar shaxsning alohida maxsus ijtimoiy tipi sifatida ajratishga asos bo'ladigan tavsifga ega ekanligi masalasi anchagina bahsli muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim mualliflar jinoyatchi shaxs sifatida boshqa kishilardan farq qiladi, deb hisoblasalar, boshqalari jinoyat sodir etish paytida, shaxsning vaziyat bilan o'ziga xos aloqadorligiga havola qiladilar va

jinoyatchi shaxsining shaxsi barqaror va huquqiy bo'lgan boshqa kishilar shaxsidan farq qiluvchi alohida belgilarga ega emas, deb hisoblaydilar. Kriminologiyada voyaga yetmaganlar jinoyat shaxsining alohida tiplari mavjud bo'lib ushbu tiplar jinoyat sodir etayotgan voyaga yetmagan shaxsning alohida belgilarini o'zida namoyon etadi.

Dastlabki tip bu **izchil kriminogen tip** bo'lib ushbu tip vakillarining jinoiy xulq-atvori odatdagi xulq-atvor tarzidan kelib chiqadi va sub'ektning qarashlari, ijtimoiy mo'ljallari va moyilliklari bilan belgilanadi [6].

Ya'ni bunday tipga mansub voya yetmaganlar jinoyatchiligiga ularning kundalik turmush tarzi hayot yo'li hamda oilaviy munosabatlardagi turli ta'sirlar sabab bo'lib ular uchun jinoyatchilik oddiy xoldek tuyiladi. Odatda, mazkur shaxs jinoyat sodir etish vaziyatidan nafaqat foydalanadi, balki uni faol yaratadi.

Situativ kriminogen tip. Mazkur tip vakillari

- ziddiyatli mikromuhitda shakllanadi va faoliyat olib boradi;
- jinoyat ko'p jihatdan uni sodir etishning ma'naviy va huquqiy nuqtai nazardan salbiy holati bilan belgilanadi.
- Ayni holda shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi.
- Bu shaxsni jinoyatga u qo'shilgan mikromuhit, uning oldingi turmush tarzi olib keladi [7].

Situtativ tip. Mazkur shaxsning jinoyt sodir etishiga yuqoridagi kabi holatlar ta'sir eta olmaydi. Bunday jinoyatchi shaxsi ongi va xulq-atvorining, shuningdek u qo'shilgan mikromuhitning axloqqa zid unsurlari ahamiyatsizdir. Bunda jinoyat mazkur shaxs aybi bilan yuzaga kelmaydi. Uning uchun ma'lum darajada g'ayrioddiy va boshqa sub'ektlar bilan birgalikda axloq va huquq

normalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatning hal qiluvchi ta’siri natijasida sodir etiladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etishning sabablarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- oiladagi va turmishdagi salbiy ta’sirlar;
- nosog‘lom turmush tarzi;
- yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo‘lish;
- o‘qimaydigan voyaga etmaydiganlarning o‘zoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg‘ulot bilan shug‘illanmaganligi;
- o‘smirning noto‘g‘ri qabul qilishga sabab bo‘ladigan xolatlarning voyaga etmagan shaxsida juda qiyin kechishi;
- katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan jinoyatlarga va turli g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishi;
- zo‘rlilik ishlatishlar yozilgan turli kitob va videofilmlarning ta’siri;
- hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e’tiqodlarning turg‘un emasligi;
- ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;
- ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri;
- ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishidir [8].

Voyaga yetmaganlarning jinoyatchiga aylanib qolishiga turli omillar sabab bo‘ladi. Bu omillar aynan oila bilan bog‘liq bo‘lib, yuz foiz deb olinganda, uning o‘ttiz foizi notinch, axloqsiz, janjalli va kriminogen oila hissasiga to‘g‘ri kelsa, tashqi tomondan “tinch” ko‘rinuvchi – xudbinona-molparast, ruhiy yaqinligi bo‘lmagan va pedagogikadan xabarsiz oilalar oltmish foizni tashkil

etishini kuzatish mumkin. Voyaga yetmaganlar ruhiyatining g'ayriijtimoiy ko'rinishlarga imkon beruvchi holatlarni quyidagilarda ko'ramiz:

❖ Eng muhim ma'naviy tushunchalar va kategoriyalar (botirlik, qo'rqqulik, sadoqat, sotqinlik, do'stlik, xiyonat, qaxramonlik, mardlik, kamtarimlik va boshqalar) haqiqiy mazmuni va ahamiyati to'g'risida buzilgan tasavvurlar.

❖ Ayrin shaxslar, voqealar, hodisalarni baholashda xato qilish. Insonni barcha xususiyatlari va sifatleri yig'indisiga ko'ra baholay olmaslik.

❖ Insonni haqiqiy motivlari va maqsadlarini hisobga olmay, uning xulq-atvoriga oid tashqi ko'rinishlarini afzal ko'rish.

❖ Shaxsning shakllanishi, organizmning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi, to'la voyaga etish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ruhiyatning o'zgaruvchanligi.

❖ His-tuyg'ularni jilovlay olmaslik, o'zgaruvchanlik, o'ta ta'sirchanlik (qo'zg'aluvchanlik), kayfiyatning tez-tez o'zgarishi.

❖ Zarur bilimlari va tajribasi bo'lmagan holda atrof-muhitga, barcha yangi, notanish narsalarga keskin munosabat.

❖ Jismoniy faollik, tashabbuskorlik, hayotiy faoliyatning kuchayishi oqibatida sarflanmagan kuch-quvvatning haddan oshib ketishi.

❖ Har qanday yo'l bilan mustaqil bo'lishga, o'z shaxsiyatining ahamiyatini tan oldirishga intilish.

❖ O'zining «katta» bo'lib qolganligini ko'rsatish va isbotlash istagi.

❖ Ta'sirga beruvchanlik, o'ta ishonuvchanlik, taqlidga moyillik.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxslarning xulqiga xos bo'lgan barcha

salbiy xislatlarni ilmiy jihatdan bilish ular orasida uchraydigan jinoyatlarning oldini olishni tashkil etishda muhim amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababdan ham voyaga yetmagan jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan bilish va amaliy jihatdan tahlil etish kriminologiya fanida alohida o‘rin tutadi. Chunki ushbu toifadagi jinoyatchilarning shaxsini ilmiy jihatdan bilmaslik, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashni samarali tashkil etishga imkon bermaydi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Dushanov R.H. “Jinoyatchi shaxs psixologiyasi” O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2011. 2-bet
2. Rustamboyev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Umumiy qism. Jinoyat to‘g‘risida ta’limot. OTM uchun darslik. — T.: «ILM ZIYO», 2010.
3. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik, – T.: TDYUI nashriyoti, 2008. 305 bet. Sarlavhada: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYUI.
4. Rustamboev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Umumiy qism. Jinoyat to‘g‘risida ta’limot. OTM uchun darslik. — T.: “ILM ZIYO”, 2010.
5. Usmonova A.A., Norboyev A.N. “Yuridik psixologiya”. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDYUI nashriyoti, 2007. – 45-bet.
6. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2008.

7. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.d.,
prof. M.H. Rustamboev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2008.

8. Kriminologiya. Maxsus qism: Darslik / I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova
va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.